




Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-sentyabr oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,8% o'sdi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 27,6 foizni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 33,3 % ga o'sdi.



2019 yil yanvar-sentyabr oyida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)


2018 yilning shu davriga nisbatan Toshkent shahrining hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Olmazor tumani 123,8 Yakkasaroy tumani 118,6 %, Shayxontohur tumani 116,8 %, Sergeli tumani 107,5 % Yunusobod tumani 107,4 %, da qayd etilgan bo'lsa, ayrim tumanlarda jumladan Uchtepa tumani 100,2 % nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-sentyabr

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 1380,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 110,2 % ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 5,0 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-sentyabr oyida ovqatlanish tashkilotlarining jamiga nisbatan ulushi



● Uchtepa ● Bektemir ● Yunusobod ● Mirzo-Ulug'bek ● Mirobod ● Shayxontohur
● Olmazor ● Sergeli ● Yakkasaroy ● Yashnobod ● Chilonzor

Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Yunusobod 15,5%, Shayxontohur tumani 13,9 %, Yakkasaroy tumani 5,9%, Sergeli tumani 16,0 %, tashkil etgan bo'lsa, Yashnobod tumani 5,0%, Uchtepa tumani 5,6 % va Bektemir tumani 2,7 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.




TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-sentyabr

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 27,6 % ni tashkil etib, chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani (17,1 %), Shayxontohur tumani (11,8%), Olmazor tumani (6,5 %) va Uchtepa tumani (9,7 %) bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir etdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi (jamiga nisbatan, foizda)



● 2019 yanvar-sentyabr



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-sentyabr

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 10836,2 ming. so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir tumani (65370,1 ming.so`m), Chilonzor tumani (19128,6 ming.so`m), Yakkasaroy tumani (15862,3 ming.so`m), Mirobod tumani (15875,5 ming.so`m) Uchtepa (9846,1 ming.so`m), kuzatildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


	Ming so'm	O'sish sur'ati
Toshkent sh	10836,2	105,6
Uchtepa	9846,1	98,2
Bektemir	65370,1	99,6
Yunusobod	9480,6	105,1
Mirzo- Ulug'bek	5959,2	103,8
Mirobod	15875,5	104,2
Shayxontohur	9554,4	114,7
Olmazor	4965,7	121,7
Sergeli	12293,6	102,7
Yakkasaroy	15862,3	117,5
Yashnobod	7291,6	97,1
Chilonzor	19128,6	104,2



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-sentyabr

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi (o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan, foizda)




2019 yil yanvar-sentyabr oyida chakana savdo tovar aylanmasi Toshkent shahar bo'yicha aholi jon boshiga 10836,2 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,6 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-sentyabr oyida o'tgan yilga nisbatan Toshkent shahrida eng yuqori o'sgan Olmazor tumani 121,7 % Yakkasaroy tumani 117,5 %, Mirzo-Ulug'bek tumani 103,8 %, va Mirobod tumani 104,2 % tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha o'sish sur'ati eng kam ko'rsatkichlar Bektemir tumani 99,6 %, Yashnobod tumani 97,1 % qayd etilgan.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-sentyabr

Kichik korxonalar va Mikrofirmalar ulushi (jami chakana savdo aylanmasidan)



Kichik korxonalar va mikrofirmalar jami chakana savdo tovar aylanmasida ulush eng katta bo'lgan tumanlar: Mirobod tumani (49,4 %), Chilonzor tumani (26,8 %), Mirzo-Ulug'bek tumani (41,2 %) Sergeli tumani (44,3 %). Bu tumanlar Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga past ko'rsatkichlarga ega tumanlar, Uchtepa tumani (20,0 %) Bektemir tumani (9,8%) hissasiga to'g'ri kelgan.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-sentyabr

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida ulgurji savdo

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 28004,3 mlrd. so`mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 110,4% ni tashkil qildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar 22445,1 mlrd. so`mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 80,1 % ni tashkil qildi.





Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p ulushga ega tumanlarga Shayxontohur tumani (96,2 %), Uchtepa tumani (94,9 %), Bektemir tumani (93,0 %) va Mirobod tumani (88,1 %) eng past ulush esa Yakkasaroy tumani (74,5 %), Olmazor tumani (72,1 %) va Sergeli tumani (67,4%) to'g'ri kelgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi jami savdoga nisbatan (%)






TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-sentyabr


Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Mirzo-Ulug'bek tumani 12,8 %, Olmazor tumani 12,6 %, Yakkasaroy tumani 12,6 %, Mirobod tumani 11,1 %, Chilonzor tumani 12,1% tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda ba'zi bir tumanlar ya'ni Yashnobod tumani 7,5 %, Sergeli tumani 7,7 %, Uchtepa tumani 5,1 %, Bektemir tumani 1,5 %, jamiga nisbatan eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulgurji tovar aylanmasidagi jamiga nisbatan ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Ulgurji tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi eng yuqori Mirzo-Ulug'bek tumani 12,7%, Mirobod tumani 12,2%, Yakkasaroy tumani 11,7%, Olmazor tumani 11,4 % va Chilonzor tumani 11,4%, hamda eng kam ko'rsatkichni Bektemir tumani 1,7 % qayd etgan.




Umumiy tovar aylanmasining 8478,7 mlrd so'mi yakka tartibdagi tadbirkorlar . 2018 yilning shu davriga nisbatan 7,8 % ga ko'paygan. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 30,9% ga teng bo'ldi.

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi, foizda (2019 yanvar-sentyabr holatiga)

Jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar 41.1

Kichik korxonalar 31.3

Yirik korxonalar 27.6






TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-sentyabr


Toshkent shahrida chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar

(tumanlarning ulushi)






Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Olmazor tumani 27,9%, Yakkasaroy tumani 25,5%, Mirzo-Ulug'bek tumani 20,4% ni tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda ba'zi bir tumanlar ya'ni Shayxontohur tumani 3,8%, Uchtepa tumani 5,1%, Bektemir tumani 7,0% ko'rsatkichlarni qayd etdi.



Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Chilonzor tumani 24,3 %, Yakkasaroy tumani 13,7 %, Shayxontohur tumani 11,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda Bektemir tumani 1,2 % Uchtepa tumani 3,7 % Mirzo-Ulug'bek tumani 5,7 % eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakillari

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakillari bo'yicha quydagicha ifodalanadi.

Davlat mulki 156,4 mlrd so'mni umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,6 % ni tashkil etadi.

Nodavlat mulki 27285,6 mlrd so'mni umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 99,4 % ni ashkil etadi.


Davlat va nodavlat shakillari





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-sentyabr



TOSHSTAT

Ташки иктисодий фаолият ва
савдо статистикаси бўлими